



BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA KROSSVORDLARDAN FOYDALANIB DARSLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

*Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi +998973406708*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilar topqirlik mashqlarini maroq bilan ko'rib bilimlarini oshirishga, boshqotirmalar, krossvordlar, rebuslar bular barchasi bolalar uchun qiziq ekanligi va bulardan qay jarayonda foydalansak bolalarimiz yanada topqir, zukko, bilimdon bo'lishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar : boshqotirmalar, krossvordlar, rebuslar , internet

Abstract. This paper argues that students can improve their knowledge by doing thinking exercises, that rebuses, puzzles and crosswords are interesting for children, and that using them in the learning process will help students develop resourcefulness and intelligence and improve their knowledge.

Keywords: rebuses, crosswords, Internet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga ko'ra ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar belgilandi. Unga ko'ra boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'rganish asosida mustaqil fikrlashga, mantiqiy tafakkurni shakllantirishga hamda zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Buni amalga oshirishda darslarda va darslardan tashqari mashg'ulotlarda krossvordlardan foydalanish muhim omil sanaladi.

O'quvchilar jurnallarda, internet tarmoqlarida berib borilayotgan topqirlik mashqlarini maroq bilan ko'rib bilimlarini oshirishga odatlanishgan. Boshqotirmalar, krossvordlar, rebuslar bular barchasi bolalar uchun qiziq. Biz bulardan qay tarzda foydalansak ma'qul, qay jarayonda foydalansak bolalarimiz yanada topqir, zukko, bilimdon bolalar bo'lib borishadi.




Biz bu boshqotirma va krossvordlardan o‘tayotgan fanimizni mavzusiga bog‘lasak maqsadga muvofiq bo‘ladi, ana o‘shanda bolalar mavzuni chuqur bilish bilan unga qiziqishi ham ortib boradi, o‘tilgan mavzular bolalarni xotirasida yaxshiroq qoladi.

Krossvord bu xotirani rivojlantirishga yordam beradigan, fikrlash madaniyatini o‘rgatadigan, yetishmayotgan ma‘lumotlarni izlashga o‘rgatadigan intellektual o‘yin. Krossvordni yechishda bola olingan bilimlarni mustahkamlaydi, bu esa materialni samarali o‘rganishga yordam beradi.

Bolalar uchun krossvordlarni tanlashda bolaning yosh imkoniyatlarini hisobga olishi kerak, shundagina krossvord yechish unga foyda keltiradi, keyingi o‘rganishni osonlashtiradi, shuningdek, qiziqarli va foydali mashg‘ulotga aylanadi.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy fikrlash salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘ziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.


Quyida bolalarni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan krossvordlardan namunalar keltirilmoqda, unda dars va sinfdan tashqari o‘tkazilgan mavzu asosida amalga oshirish imkoniyati mavjud. Rasmlar asosidagi krossvordlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos bo‘lib, ulardan kataklarga to‘g‘ri joylashtirish masalasi so‘raladi. Darslar jarayonida va darsdan tashqari o‘qish jarayonlarda ushbu krossvordlardan foydalanish uchun tavsiya qilayapmiz.



Активация
Чтобы активировать
раздел "Па
н



Ushbu mashina nomlarini topib to‘g‘ri joylashtirsak metro so‘zi kelib chiqadi.



Ushbu rasmdagi o‘quv qurollarini to‘g‘ri joylashtirsaniz “Maktab” so‘zi krossvord kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, biz krossvordning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘ziga xos qoidalariga ega ekanligini bilib oldik.



Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni
2. Xalq ta’limi jurnali. 2021-yil 3-maxsus soni.47-48-betlar.
3. Gulxan jurnali. 2023-yil 12-son.
4. T. G‘affarova, E Shodmonov, G Eshturdiyev. O‘qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. T.: “Sharq”, 2019.
5. G‘afforova T. va boshq. O‘qish kitobi: 2-sinf uchun darslik– T.: “Sharq” 2018.

